

## **YOSHLARDA VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI**

**Abdullayeva G.S.**  
dotsent CHPDPU

**Safarov F.F.**  
erkin tadqiqotchi

### **ANNOTATSIYA**

Vatanimizning salohiyati, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari nechog‘li ulkan ekanligi, yurtimizning qadimiyligi va boy tarixi, ulug‘ ajdodlarimiz va ular qoldirgan madaniy meros bashariyat madaniyati va rivojiga qo‘shgan ulkan hissasi haqida yoshlarni ongiga singdirib borish zarur. Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** Vatan, vatanparvarlik, tarix, adolat, e’tiqod tushunchalari,yoshlar dunyoqarashlari, insonparvarlikning.

O‘zbekistonda yoshlarni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va aqliy salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, ularni har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Uzoqni ko‘zlagan holda qabul qilingan kadrlar tayyorlash, maktab ta’limini rivojlantirish umummilliy dasturlari, yoshlarga oid davlat siyosati, o‘g‘il-qizlarimiz uchun turli yo‘nalishlar bo‘yicha ta’sis etilgan davlat mukofotlari, bunyod etilgan ta’lim maskanlari, bolalar sportini rivojlantirish borasidagi ishlar... Bularning hammasi barkamol avlodni, demakki, ertangi kunimizning munosib davomchilarini, yurt kelajagi jonkuyarlarini tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar sirasiga kiradi. Quvonarlisi, yuqoridagi ezgu g‘oya, maqsadlarni amalga oshirish – yoshlarni ona Vatanga sadoqat va mehr-muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ehtirom, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘g‘il-qizlarimizning orzu-istiklarini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi intilishlarini bugun barcha jabhalarda har bir sohada ko‘rishimiz mumkin.

Aslida, yoshlarning mustaqil dunyoqarash va faol hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lishlari uchun har birimiz mas’ulmiz. Ulardagi ma’naviy va axloqiy fazilatlarni tarbiyalash, vatanparvarlik, mamlakat taqdiri uchun mas’uliyat hissi bilan yashash,

yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash tuyg‘usini yanada kuchaytirishga, o‘g‘il-qizlarimizni har tomonlama bilimdon qilishga muvaffaq bo‘la olsakkina marra bizniki. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrılib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin”, deb alohida ta’kidlangan “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarda.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, bundan 800 yil muqaddam Jaloliddindek pahlavon o‘g‘ilni dunyoga keltirgan Oychechak ona farzandlari qoniga ko‘krak suti bilan birga yurtining nafasini, mehr-muhabbatini, ozodlikka bo‘lgan buyuk sog‘inchini ham singdira oldi. U o‘z allalari bilan o‘g‘il-qizini Vatanga fidokorlik, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyaladi. Jaloliddinning fojiaviy tugallangan umri tarix sahifalarida jasoratning mislsiz timsoli sifatida muhrlanib qoldi. U forslardan Isfandiyor Xazar o‘lkasida asirga tushgan singlisini qutqarish uchun borib, o‘zi ham asirga tushdi. Zindonda undan “Nima xohlaysan?” deb so‘raldi. U esa “Vatanimning bir siqim tuprog‘i va bir qultum suvi”, dedi.Jonajon Vatanimizning shonli tarixi sahifalarini varaqlasak, ajdodlarimizni nechog‘lik vatanparvarliklariga guvoh bo‘lamiz. Ulug‘ tariqat peshvosi Najmuddin Kubro yurtimiz tarixida buyuk vatanparvarlik namunasini ko‘rsatdi. Vatan muhabbatil ila bo‘lgan istaklaridan boshqa istaklarga quloq solmadi.

Ha, har bir inson qalbida tug‘ilgan joyiga nisbatan muhabbat bo‘lishi darkor. Bir faylasufdan so‘radilar: “Yashash qiyin bo‘lgan bu cho‘lu biyobonga qanday sabr qilasizlar?” U javob berdi: “Agar insonning tug‘ilgan joyiga muhabbatil bo‘lmaganida edi farovon shaharlarga odamlar sig‘mas edi”.

Vatan, millat uning farzandlari jasorati, harakati va qudrati tufayli abadiydir. Osoyishtalik, umuman, barqaror rivojlanish har bir yurting fuqarolari vatanparvarligiga bevosita bog‘liqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. G.S.Abdullayeva “Maxsus va inklyuziv ta’limda AKT” Fan va texnologiya-Toshkent-2022y2. Burkhonov, A., Avlaev, O., Abdujalilova, S., & Otaev, A. (2021). Responsibility as a criterion for determining personal maturity. In E3S Web of
3. Sh.M.Mirziyoyev Surxondaryo viloyati kengashining xalq deputatlari navbatdan tashqari sessiyasi 2018 yil 19-yanvar –Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasi 1992 yil 8 dekabr// -Toshkent.
5. G.Abdullayeva “Maxsus va inklyuziv ta’limda AKT” Fan va texnologiya-Toshkent-2022y
6. Burkhonov, A., Avlaev, O., Abdujalilova, S., & Otaev, A. (2021). Responsibility as a criterion for determining personal maturity. In E3S Web of Conferences (Vol. 244, p. 11059). EDP Sciences.